

Tashmetov TUXTASIN

G'OYALAR TARIXI VA NAZARIYASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TASHMETOV TUXTASIN XUDAYBERGANOVICH

G'OYALAR TARIXI VA NAZARIYASI

O'quv qo'llanma

**«TAMADDUN»
Toshkent
2023**

UDK: 94.5

KBK: 66.3 (50*)

T-29

Tashmetov, Tuxtasin Xudayberganovich

G'oyalar tarixi va nazariyasi [Matn] / T.X. Tashmetov. – Toshkent: "Tamaddun", 2023. 256 b.

Mas'ul muharrir:

Sh.N.Turayev – Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lum boshlig'i falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

I.Ergashev – O'zbekiston Milliy universiteti, "Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi" kafedrası siyosiy fanlari doktori, professor;

B.M.Qandov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrası falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent.

Mazkur kitobda g'oyalarning shakllanish tarixi va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari, jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasining jamiyatimiz hayotidagi o'rni, "globallashuv", "milliy g'oya" va "innovatsion texnologiyalar" tushunchalarining mazmun-mohiyati va o'zaro aloqadorligi, globallashuv sharoitida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi, mafkuraviy immunitetni shakllantirish muammolari, O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyaning zarurligi va ahamiyati, yoshlarni yot va zararli g'oyalardan himoya qilishda milliy g'oya negiziga tayanishning istiqbollari to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Kitob oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilari hamda bevosita g'oyalar tarixiga qiziquvchi keng kitobxonlarning barchasiga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68 - sonli buyrug'iga asosan o'qituv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9745-0-0

© «TAMADDUN», 2023

KIRISH

Bugungi kunda kechayotgan global integratsiya jarayonlari, dunyoning g'oyaviy-maʼkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur uslubini taqozo qilmoqda. Shu bois, O'zbekistonda ta'limning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor berilib, o'qitilayotgan fanlarning mazmunini zamon talablariga moslashtirilishi bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi va "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlarida belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida o'z ifodasini topmoqda.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dimyoqarashini yuksaltirish, maʼkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, jahonda g'oyaviy-maʼkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shilib qolish holatlari hamon uchramoqda.

Bugungi kunda dunyoda globallashtirish jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish" sari dadil odimlashda Milliy g'oyamizni o'z mazmuniga qamrab olgan qator fanlar ta'lim tizimidan keng o'rin oldi. "G'oyalar tarixi va nazariyasi" ana shunday yosh fanlardan biri bo'lib – "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan mutaxassislik fani hisoblanadi. Ushbu fan ezgu g'oyalardan va sog'lom maʼkuradan mahrum bo'lgan biron-bir

1-MAVZU: "G'OYALAR TARIXI VA NAZARIYASI" FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. O'zbekistonda milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zaruriyati.
2. "G'oyalar tarixi va nazariyasi" fanining ob'yekti va predmeti.
3. "G'oyalar tarixi va nazariyasi" fanining maqsad va vazifalari.

1. O'zbekistonda milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zaruriyati

Mustaqillik g'alabasi bilan jamiyatimiz a'zolarining dunyoqarashi, fikrlash tarzida teran o'zgarishlar ro'y berdi.

Xalqimizni birlashtiradigan bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida ifodalaydigan milliy mafkurani yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim sharti bo'lib qoladi. Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Oldimizga qo'ygan oliyjanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda"¹ edi.

Odamlarga mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarini hayotiy dalillar bilan sodda va lo'nda qilib tushuntirish, istibdod asoratlarini tarixiy dalillar asosida fosh etish milliy g'oyaning asosiy tushuncha tamoyillarini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish birinchi navbatda rahbar kadrlar, ziyolilar, ommaviy axborot vositalari xodimlarining muhim vazifasi, fuqarolik burchiga aylandi. Milliy g'oyaga sadoqat, kasbiy mahorat, keng ommani ishontirish va safarbar etish, qobiliyati kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yishda asosiy mezon bo'lmog'i lozim bo'lib qoldi. Milliy mafkura

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –Toshkent: "O'zbekiston", 2000. 5-bet.

2-MAVZU: G'OYALARNING SHAKLLANISH TARIXI VA ULARNING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Reja:

1. G'oyalarning falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlari.
2. "Avesto"da ilgari surilgan g'oyaviy qadriyatlar.
3. Temuriylar davri g'oyalari va mafkuraviy tolerantlik.

1. G'oyalarning falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlari

G'oyaning falsafiy ildizlari haqida fikr yuritganda, uning falsafa ilmi xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Bunga G'arbda Uy-g'onish davrini hamda O'rta asrlarda o'z milliy davlatchiligini tiklay boshlagan Yevropa xalqlarining o'ziga xos g'oyasini misol keltirish mumkin.

Mazkur g'oyalar Rim imperiyasi parchalanganidan keyin o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos qadriyatlari zaminida vujudga kelgan milliy falsafalar asosida shakllandi. Shu bois, o'sha davrdagi italyan, ingliz, fransuz falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga samarali hissa bo'lib qo'shildi. Kant, Gegel, Feyerbax kabi mutafakkirlar nomi bilan shuhrat topgan nemis falsafasi xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel falsafasi Avstriya-Vengriya imperiyasidan ajralib, mustaqillik yo'lini tutgan Pruss monarxiyasi davlat g'oyasi darajasiga ko'tarilgan edi.

G'oyaning dunyoviy ildizlari ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Insoniyat asrlar mobaynida bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Bunday jamiyatda insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi.

Bunday jamiyat g'oyasi "Dunyoviylik-dahriylik emas", degan tamoyil asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotidagi tutgan

4-MAVZU: "GLOBALLASHUV", "MILLIY G'OYA" VA "INNOVATION TEXNOLOGIYALAR" TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHİYATI VA O'ZARO ALOQADORLIGI

Reja:

1. Globallashuv jarayonlari tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Milliy g'oyaning jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari.
3. Innovatsion texnologiyalar tushunchasining mazmun-mohiyati hamda "Globallashuv", "milliy g'oya" bilan o'zaro aloqadorlik jihatlari.

1. Globallashuv jarayonlari tushunchasining mazmun-mohiyati

Insoniyat taraqqiyotining bugungi bosqichida eng katta masshtabdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan biri, shubhasiz, globallashuv jarayonlari deyishimiz mumkin. Globallashuv jarayonlari jamiyatning siyosiy, iqtisodiy sohalari bilan bir qatorda ijtimoiy-ma'naviy jihatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda, ijtimoiy ongning turli ko'rinishlari yangicha mohiyat kasb etib, mutlaqo boshqacha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar, jadallashuv jarayonlari bir so'z bilan "globallashuv" deb nomlanadi.

Modomiki, mavzuyimiz globallashuv fenomeni bilan bog'liq ekan, mazkur hodisaning paydo bo'lish omillari, rivojlanish tadriji, tushuncha sifatidagi belgi-xususiyatlari haqida to'xtalib o'tishni joiz deb hisoblaymiz.

Globallashuv haqida xorij olimlari tomonidan turli qarashlar bayon etilgan. Xususan, amerikalik olim va siyosatchi Charlz Tilli bu jarayon tarixan ancha ilgari boshlangan, deb hisoblaydi. Uning fikricha, "...dunyoda davlatlar sarhadi paydo bo'lib, o'lkalar o'rtasida mol ayirboshlash kengaygan davrdayoq globallashuv kurtak yozgan"¹. Globallashuv shunchalik uzoq tarixiy jarayonni bosib o'tibdimi, kelajakda yanada taraqqiy etib boraverishiga tabiiy hol sifatida qarash, bizningcha, to'g'ri bo'ladi.

¹ Tilli Ch. Coercion, Capital, and European states, AD 990-1992. Blackwell, 2015. – P.67.

8-MAVZU: MILLIY G'OYANI SINGDIRISHDA YOSHLAR ONGINING TRANSFORMATSIYALANISH JARAYONLARI

Reja:

1. "Transformatsiya" tushunchasining milliy g'oyada aks etishi.
2. Global o'zgarishlar davrida yoshlar ongining transformatsiyaga uchrashi.
3. Milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan vayronkor g'oya va buzg'unchi mafkuralar: "Aqidaparastlik", "Diniy ekstremizm" hamda "Missionerlik"ning asosiy maqsad va vazifalari.

"Transformatsiya" tushunchasining milliy g'oyada aks etishi

Milliy g'oya fuqarolarning kundalik ish va bunyodkorlik faoliyatida ishonch va ruh bag'ishlovchi omildir. Yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosida milliy g'oyani shakllantirishning murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatidagi transformatsiya o'zgarishi sodir bo'ladi. Bu jarayonda esa uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi muhim rol o'ynaydi. Milliy g'oya jamiyatlar kurashidir. U fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslanadi. Shu bilan "davlat mafkurasi"dan tubdan farq qiladi. Milliy g'oya mamlakat oldida turgan yuksak maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyatdagi har bir odamni birlashtirishga, safarbar etishga, jipslashtirishga xizmat qiladi. Milliy g'oya millatning ichki rivojlanishi va kelajak sari intilishi hamda kurashlarining markazidagi kuch bo'lib, millatning qaysi yo'llar va qaysi maqsadlar sari olg'a intilishini ta'minlash orqali transformatsiyaga uchraydi. Natijada, "transformatsiya" barcha sohalardagi kabi milliy g'oya fanining rivojiga ham bevosita ta'siri ko'rsatadi.

"Transformatsiya – (lot. o'zgarish, aylanish) totalitar siyosiy tizimlarning demokratik siyosiy tizimlarga o'zgarishi jarayoni"¹dir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, transformatsiya "qayta o'zgarish", "qayta hosil bo'lish" jarayoni bo'lib, milliy g'oyaning transformatsiyaga uchrashi natijasida esa unda sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi. Turli xil axborot vositalari, tovarlar va zamonaviy

¹ Raximov S., Tashmetov T.X. Milliy g'oya: Savollar va javoblar. O'quv qo'llanma. – T.: O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi, 2021. 180-b.

13-MAVZU: FIKRGA QARSHI FIKR, G'OYAGA QARSHI G'OYA, JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT BILAN KURASHISH DAVR TALABI

Reja:

1. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi.
2. Jamiyat hayotiga xavf tug'dirayotgan mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lish omillari.
3. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning mazmun-mohiyati.
4. Ma'rifat ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishning mexanizmlari

1. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi

Hozirgi murakkab va tahlikali davrda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan turli mafkuraviy xurujlarning yoshlarimiz ongi va qalbini egallashga qaratilgan harakatlari tobora kuchayib, keng quloq ochmoqda. Bu esa insoniyatni har doim ogohlikka chaqiradi.

Shu o'rinda "ogohlik" tushunchasining ma'nosiga e'tibor qaratsak: "Ogohlik" bu – odamning o'z atrofidagi narsalarga o'ta e'tiborli, sinchkov munosabati bo'lib, u insonni jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan, diqqat bilan munosabatda bo'lishga olib keladi. Ulardagi har bir detal, o'zgarish, yangilikni tahlil qilish, internet, televidenie, gazeta, kishilarning kundalik hayotidagi xatti-harakatlariga munosabat bildirishdir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, "...qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha, qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"¹.

Kishilar fikri, tafakkuri ustidan muayyan g'oyalarning hukmron

¹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" – Toshkent: Ma'naviyat. 2008. – B.72.

15-MAVZU: YOSHLARNI YOT VA ZARARLI G'OYALARDAN HIMOIY QILISHDA MILLIY G'OYA NEGIZIGA TAYANISHNING ISTIQBOLLARI

Reja:

1. Global o'zgarishlar davrida zararli mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati.
2. Yoshlarni yot va zararli g'oyalardan himoya qilishda milliy g'oya negiziga tayanishning istiqbollari.
3. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asoslari.

1. Global o'zgarishlar davrida zararli mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati

XX asr dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskin va murakkab tus olgan davr sifatida tarixga kirdi. Asr so'ngida ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi jahondagi mafkuraviy manzaralarni tubdan o'zgartirib yubordi. XXI asrning dastlabki o'n yilligida siyosat, iqtisod, ilm-fan, madaniyat sohalarida insoniyat tomonidan ulkan taraqqiyot natijalariga erishilgan bo'lsa, ayni paytda global tinchlik va dunyo barqarorligiga tahdid soluvchi jiddiy xavf-xatarlar ham kuchaymoqda. Insoniyatning ko'p mingyillik tajribasi hanuz urush olovini yoqishga, undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib qolishga urinayotgan qora kuchlar sayyoramizning turli burchaklarida o'zlarining qabih niyatlariga erishish yo'lida jadal faoliyat olib borishiga to'sqinlik qila olmayapti. Bunday vaziyatda yoshlar uchun milliy g'oya negiziga tayangan ta'lim va tarbiya yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida, "Turli xil diniy e'tiqodlarni inson, xususan, yoshlar ongi va ichki dunyosiga singdirish orqali siyosiy maqsadlarga erishish – mafkuraviy tajovuzning bir shakliga aylanmoqda"¹. Bu xususida tadqiqotchi olim M.Bekmurodovning quyidagi fikrlarini eslashni joiz deb bilamiz: "Turli xil diniy e'tiqodlarni omma ongiga singdirish orqali siyosiy maqsadlarga erishish XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biriga aylandi.

¹ Akromova Sh. Internet: G'oyaviy virusdan ehtiyot bo'ling. – Toshkent, 2010. –B. 8.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu: "G'oyalar tarixi va nazariyasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari.....	6
2-mavzu: G'oyalarning shakllanish tarixi va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari.....	15
3-mavzu: O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasining jamiyatimiz hayotidagi o'imi.....	25
4-mavzu: "Globallashuv", "milliy g'oya" va "innovatsion texnologiyalar" tushunchalarining mazmun-mohiyati va o'zaro aloqadorligi.....	41
5-mavzu: Globallashuv jarayonida milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishning ilmiy-falsafiy jihatlar.....	56
6-mavzu: Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda innovatsion g'oyalar va qarashlar.....	69
7-mavzu: Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali jihatlar.....	86
8-mavzu: Milliy g'oyani singdirishda yoshlar ongining transformatsiyalanish jarayonlar.....	100
9-mavzu: Global yutuqlardan foydalanishda milliy g'oyaning samaradorligini oshirish omili.....	114
10-mavzu: Axborot-kommunikatsiya tizimi g'oyaviy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida.....	125
11-mavzu: Ijtimoiy tarmoqlardagi zararli g'oyalardan muhofazalanishning innovatsion texnologiyalari.....	141
12-mavzu: "Ommaviy madaniyat"ning milliy g'oyaga zidligi, uning oldini olish shart-sharoitlari, omillari.....	160
13-mavzu: Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish davr talabi.....	172
14-mavzu: O'zbekistonda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlashning muhim jihatlar.....	184
15-mavzu: Yoshlarni yot va zararli g'oyalardan himoy qilishda milliy g'oya negiziga tayanishning istiqbollari.....	194
Xulosa.....	207
Izohli lug'at – glossariy.....	209
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	229
Ilova.....	239

TASHMETOV TUXTASIN XUDAYBERGANOVICH

G'UYALAR TARIXI VA NAZARIYASI

O'quv qo'llanma

Muharrir

Musahhih

Texnik muharrir


M. Alimov

X. Zokirova

A. Yuldasheva

Nashriyot litsenziyasi AI № 247, 02.10.2013.
Bosishga ruhsat 10.06.2023. Format 60x84 1/16.
Garnitura «Times New Roman».
Shartli bocma tabog'i 14.8. Nashr tabog'i 14.6.
Adadi 200 dona. Buyurtma № 17.

«ELNUR-PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi,
Toshkent sh., Navoiy 30.



O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligining 2023 yil "27" Mart
dagi "68"-sonli buyrug'iga asosan

T.X.TASHMETOV

(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

(ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi))

_____ ning
talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

G'OYALAR TARIXI VA NAZARIYASI

(o'quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o'quv qo'llanma)

_____ ga
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr
etishga ruxsat berildi.

Vazir



I. Abduraxmonov

№ 68 - 404